



**Andijon davlat
pedagogika instituti**

**OFIS REGISTRATORI
XIZMATLARI**

Reg №-05/02

« 01 » « May » 2024 y.

AKADEMIK TA'TIL HAQIDA MA'LUMOTNOMA OLISH

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari talabalariga akademik ta'til berish va akademik ta'tildan so'ng ularning o'qishini davom ettirish tartibini belgilaydi.

Akademik ta'til olish uchun talaba (sog'lig'i holatiga ko'ra talaba shaxsan murojaat etish imkoniyatiga ega bo'lmasa, uning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yoki turmush o'rtog'i) tomonidan oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori) nomiga ariza bilan murojaat qilinadi.

Akademik ta'til olishni so'rab murojaat qilgan talabaning arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

Harbiy xizmatni o'tash uchun - tegishli tuman (shahar) mudofaa ishlari organlarining talabani harbiy xizmatga chaqirish haqidagi chaqiruv qog'ozi;

Salomatligini tiklash, homiladorlik va tug'ish, shuningdek, bolalarni parvarish qilish uchun talaba doimiy tibbiy nazoratda turgan tibbiyot muassasasi xulosasi;

Oilasining betob a'zosini parvarish qilish uchun - oilasining betob a'zosi doimiy tibbiy nazoratda turgan tibbiyot muassasasi xulosasi.

Talabaga akademik ta'til berilishi uni oliy ta'lim muassasasidan chetlashtirish deb hisoblanmaydi. Talabalarga akademik ta'til davrida stipendiyalar to'lanmaydi. Yana toliqroq ma'lumot olish uchun **lex.uz** sayti orqali bilib olishingiz mumkin.

Azizbek Umarov

Ofis registratori xizmatlari
bo'limi bosh mutaxassisi